

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

URGUT TUMANIDAGI BA'ZI TOPONIMLAR HUSUSIDA

Fayziyev Farruh

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Murod Xasanov

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Urgut tumani hududidagi eski mahalla, qishloq va boshqa joy nomlarining kelib chiqishi tarixi yoritilgan bo'lib, Urgut tumani toponimikasi tarixiga doir qiziqarli tarixiy ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

Kalit so'zlar: Urgut, toponimika, Mo'minobod, Vagashti, Xo'jayduq, Abul Husayn Muhammad ibn Xusayn, Izuxiy ash-Shovzaziy Ravotxo'ja, Xo'ja Zakariy Varaqsariy.

Kirish

Insoniyat paydo bo'libdiki yashash uchun o'ziga qulay bo'lgan hudud va sharoiti yaxshi bo'lgan joy qidirib kelgan. Odamzod yashashi va xayot kechirishi uchun albatda havosi toza xudud, tabiiy to'siqlar bilan ximoyalangan va albatda eng zarur bo'lgan suv va uning yaqinida bo'lishi lozim. Zero yuqorida sanab o'tgan resurslarning barchasi Urgutda mujassam baland tog'lari ibtidoiy tuzumdan to bugungi kungacha tabiiy ximoya poydevori vazifasini o'tagan. Bundan tashqari tog'larida kundalik extiyojimizga kerak bo'ladigan zarur mineral qatlamlarga ega. Ayniqsa chashma va buloqlarning shifobaxsh suvlari tanaga xuzur bag'ishlaydi va shu bois o'tmish ajdodlarimiz bu yerda muqim yashab kelgan. Shu bois keyingi davrlarda turli xududlardan va mintaqalardan bu xududga ko'chib keluvchilar ko'p bo'ldi. Ayrim qabila va elatlarning nomi o'sha o'zlari o'rnatilgan xududning toponimiga aylandi. Qolaversa Buyuk ipak yo'lining xam ta'siri beqiyos. Buyuk ipak yo'li orqali boshqa xududlar axolisi bilan madaniy va savdo aloqalari orqali Urgut tumanida assimilyatsiya jarayoni jadallik bilan kechdi. Bilamizki arablar kirib kelgunigacha So'g'd hayotida Urgut tumaninig o'rni va roli muxim bo'lgan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mo'minobod. Bu etnonim bevosita islom diniga oid hisoblanadi. "Mo'min"-arabcha so'z bo'lib, "e'tiqod qiluvchi" ya'ni "dinga ishonuvchi" degan ma'noni bildiradi. Bundan kelib chiqadiki bu qishloqning kelib chiqishi va bu yerda istiqomat qilayotgan axoli dinga sobitqadam ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mahalla 3500 yillik tarixga ega. Bu haqida O'zbekiston mustaqilligidan oldin va mustaqillikka erishganimizdan so'ng Urgut tuman hokimi lavozimida faoliyat olib borgan O'lmas Mahmadmurodovning "Vatanga baxshida umr" kitobida ham so'z boradi: 1964-yilning bahorida Mo'minobod qishlog'ida istiqomat qiluvchi Mirza Toshboyev tomorqasiga tok ko'chatlari ekayotib, yer ostidagi sag'anaga ketmon urganini bilmay qoladi. Qabrda chaqaloq jasad bo'lib, uning qo'llariga bilakuzuklar, quloqlariga zirak, burniga kumush suvi yuritilgan xalqa topilgan edi. Uning bosh tomoniga naqshlangan sopol idish qo'yilgan, qabr ichiga marjon bo'laklari sochilgandi. Qizchaning bilakuzuklari zang bosgan edi. Mirza Toshboyevning bu topilmasi haqidagi xabar jumhuriyat bo'ylab tez tarqaldi. Zudlik bilan Samarqand dorilfununi olimlari, so'ngra Toshkentdan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining bir guruh arxeologlari yetib kelishdi. Tekshirishlardan M. Toshboyevning tomorqasi bronza asriga oid qabriston ustida joylashganligi ma'lum bo'ldi. Olimlar oltita qabrni ochib o'rgandilar. Shundan beshtasi ayolarniki bo'lib chiqdi. Qabrlardan bronza va oltindan yasalgan sirg'alar, bronza uzuklar, marjonlar, oyna hamda suyaklardan ishlangan nay, ko'plab sopol idishlar olindi". Demak, Mo'minobod hududi bronza davridan boshlab odamlar yashaydigan qulay joy hisoblangan. Qishloqning nomlanishiga keladigan bo'lsak shu qishloq kekxa nuroniylarining aytishiga ko'ra ushbu hududga XVII asrda shimol tomonidan ya'ni uch qishloq naridan, hozirgi Vatak qishlog'idan Sotiboldi so'fi boshchiligida dindorlar ko'chib kelishgan va qishloqqa Mo'minobod deb nom berishgan. Bundan ko'rinib turibdiki so'fiylik ta'limotining yirik vakillarining avlodlari yashaganligi uchun ham shunday nomlashgan.

Vag'ashti. Urgut tumanining zabardast va purviqor tog'lari necha ming yil o'tsahamki o'zining qal'asiga qancha siru-asrorlarni yashirib savlat to'kib turibdi. Fransiya, Shvetsariya va Irlandiyadagi dunyoga mashhur tog' qal'alari o'zining qurilishi va arxitekturasidan xos qolishmaydigan, baland-baland tog' tepasiga qal'a va ximoya qo'rg'onlari bunyod etganlar. Xususan Urgut xalqi xam sangtaroshlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan. Makedonlarning milliy qaxramoni bo'lmish jaxongir, sarkarda Aleksandr Makedonskiy ham bizning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o'lkamizga bostirib kelganda tog'dagi qal'a va istexkomlarni egallashga qiynalgan. Eramizdan avvalgi 329-yil So'g'dga bostirib kelib shaxarni egallagan bo'lsada (Afrosiyobni) ammo, tog'dagi qal'alar hamon mustaqil va yunon-makedonlar shoxiga tinchlik bermas edi. Xo'sh Su'g'd qoyalari deganda (yani So'g'ddagi tog' qal'alar) qaysi tog' nazarda tutiladi?. Bilamizki So'g'd vodiysi Zarafshon tog' tizmalaridan boshlanib, shimol va shimoli-g'arbga qarab tekisliklarni o'z ichiga oladi. Afrosiyobni qo'lga kiritgandan so'ng Aleksandr tog' qal'alarini egallashni boshlaydi. Bu xususida mahalliy filolog olim Abdurashid Abduraxmonov o'zining " Urgut: tarix va adabiyot" nomli risolasida So'g'd qoyalarini biz o'rganayotgan Vag'ashti qishlog'ining tog'i tepasidagi 10-15 sotixli qal'a xarobalari aynan Makedoniyalik Aleksandr yurish qilgan tog qal'alaridan biri ekanligiga ishora qilganlar: " Iskandar mil. avv. 327-yil bahor faslining boshida " So'g'd qoyalari" ga yurish kildi. U baqtriyalik oq suyaklarning yirik namoyondalaridan biri Oksiart boshlik tog'dagi qal'ani 300 kishi bilan egalladi. Tarixda "so'g'd qoyalari" nomi bilan yuritilayotgan qal'a qarda joylashganligi masalasi tadqiqotchilarimiz o'rtasida katta baxslarga sabab bo'lmoqda. Mutaxassislar xozircha, bu qal'a Xisor tog' tizmasining g'arbi-janubiy etaklarida joylashgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas" degan fikrdalar"" deb keltirib o'tganlar. To'g'ri, bog'lashga xarakat qilib o'tganligi o'rinli, nega deganda to'g'ridan-to'g'ri o'sha qal'a deya olmasligiga asosiy sabab manba va faktning yo'qligidadir. Yunon-makedonlar o'rta osiyoga kelishi antik davrga to'g'ri keladi. Shu bois biz bu davrni arxeologik topilmalar orqali o'rganamiz. Negaki xali bu davrda bizning xududimizdan asar yozadigan manbashunos yetishib chiqmagan edi.

Xo'jayduq. Chetdan qaragan odam bu yerda xo'jalar yashaydigan joy bo'lsa kerak deb o'ylashi mumkin. Lekin xar bir qishloqning o'ziga xos tarixi bor. Tarixiy manbalarda Xo'jayduq qishlogi "Izuq" nomi bilan qayd etilib, u " Izaj" deb xam atalgan. U Samarqanddan uch farsax uzoqlikda Shovdor tog'i yaqinida joylashgan. Ushbu qishloqda alloma Abul Xusayn Muxammad ibn Xusayn va Izuxiy ash-Shovzaziy yashagan. Shu qishloq keksalarining aytishicha bugungi qishloq o'rni qadimda uning janub tomonida uning xozirgi tepaliklar o'rnida bo'lgan. Ayni paytda baxor elchisi bo'lmish boychechaklar bo'y ko'rsatib turgan bu tepaliklar qishloq vujudga kelishida axamiyati katta bo'lgan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Xo'jayduq qishlog'i Urgut tumanining uzoq moziyga borib taqaladigan, tarixi bir ulkan qishloq. Bu qishloqda milodiy VI-VII asrlarda Xo'jalar yashab o'tgan. Mana shu tepaliklarda bir 20 ta xo'jalik istiqomat qilgan. O'sha vaqtda tog' xo'jalari bu yerda yashab, bu yerni keyinchalik tark etib ketgandan keyin bu yerda suv bo'lmagan. Xo'jalar tog'dan suvni ko'zalarda, chelaklarda olib kelib iste'mol qilgan. Ular juda xam qiynalganligi sababli ular bu yerni tark etib ketganlar. Shuning uchun bu joyni nomi "Xo'jayi dog'" deb atalgan. Xo'jalar bu yerni tark etib ketganligi sababli Xu'jaydog' bo'lib qolgan. Xo'jalardan qolgan dard, dog' sababli, Xo'jaydog' deb nomlanib qolgan.

Shundan so'ng yuz yilcha bu yerga xech kim kelmagan suv bo'lmaganligi uchun bu xo'jalarni yashagan joyida xech kim bo'lmagan. (Biz borgan manzil, yani o'sha nuroniy bilan suxbat qilgan joyimiz xo'jalarni qabristoni bo'lgan). Keyin bu yerlarda chashmalar paydo bo'lgandan keyin bizni ota-bobolarimiz Urgutdan Xo'jayduq guzariga ko'chib kelgan" deydi yuzida quvonch bilan o'sha nuroniy. Ular Urgutga borib kelish juda qiyin bo'lganligi bois, bog'larini barpo qilgandan so'ng bu yerdan yerto'la, uy yasab uzoqlarga safarlarga shu yerda qolib, mana shu yerdan "Xu'jayduq" qishlog'i paydo bo'lgan. Xo'jayduq kishlog'ida xo'jalarning avlodi qolmagan, balki bu yerga Urgutdan ko'chib kelganlar asos solib qishlog' "Xo'jalardan qolgan dog'" deb atalib "Xo'jayduq" nomini olgan. Urgutdan ko'chib kelganlar davri VIII- asrga borib taqaladi, yani xo'jalar ko'chib ketgandan I asr o'tib bu qishloqqa odamlar qayta ko'chib kelishgan deydi. Shirvoq ota ziyoratgohi masul xodimi Ahmadjon ota Boboqulov, Xo'jayduqda undan tashqari (yani xo'jalardan tashqari) barlos urug'i vakillari xam yashaydi. Umuman olganda 92 O'zbek urug'ining barcha vakillari yashaydi. Bu qishloqda Qashqadaryodan Barlos urug'i xam kelib ma'lum muddat yashab o'tganlar. Xo'jayduqda keyinchalik aholini o'troqlashishini ko'rishimiz mumkin, bunda aholi asosan buloq va chashmalar atrofida ko'proq muqim yashaganligini e'tirof etamiz.

Qishloqda xo'jalardan qolgan qabriston mavjud. Qabrtoshlari esa saqlanib qolmagan. XVI asr vaqf xujjatlarida "Izux-Izaj" qishlog'i Xo'ja Yadux shaklida uchraydi. Endilikda bu qishloq Xo'jayduq deb atalib, Urgut tumanidagi Boyqishloq va Zinak qishloqlari orasida joylashgan. "Izux", "Izaj" qishloqlari nomlarining etimologiyasi So'g'dcha " ko'rinish" , " shakl " kabi ma'nolarni ifodalaydi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ravotxo'ja. Bir qarashda oddiy nomday ko'rinishi mumkin, lekin nega aynan bunday nom bilan atalgani xaqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ravotxo'ja – xo'jalar devori degan ma'noni anglatishi mumkin. Lekin kelib chiqishi umuman boshqa xisoblanadi. Urgut tumanining sobiq xokimi, marhum O'. Maxmadmurodov o'zining "Urgut va urgutliklar" nomli kitobida quyidagicha ma'lumot keltirgan: " Ravotxo'janing qadimiy nomi Varaqsar bo'lib, to'g'on boshi degan ma'noni bildiradi. Varaqsar Samarkand va uning atrofidagi tumanlariga Zarafshon daryosi suvining ayirg'ichi xisoblanadi. Varaqsar to'g'onini nazorat qilish shu joyda yashaydigan axolining zimmasiga yuklatilgan, buning evaziga ular xiroj to'lashdan ozod etilganlar". Bundan ko'rinib turibdiki Ravotxo'ja tarixi Urgut tumanining tarixi bilan chambarchas uzviy bog'lik xisoblanadi. Asrlar davomida bu joy ne-ne og'ir va sinovli yillarni boshidan o'tkazmadi.

O'tmishdan ma'lumki o'lkamizga chet el bosqinchilari bostirib kelganda birinchi navbatda o'sha biz ko'rib o'tayotgan qishloqning ya'ni Varaqsar to'g'onini buzib axolini suvsiz qoldirib o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'lishgan. Lekin bunga xar doim xam erisha olmagan. Keyinchalik " Urgut va urgutliklar" kitobida keltirishicha "Varaqsar XII asrga kelib Ravotxo'ja nomini oldi. Akademik V.V. Bartoldning fikricha, nomning o'zgarishi shu yerda dafn etilgan Xo'ja Zakariy Varoqsariy (844 yilda vafot etgan) nomiga qo'yilgan". Zero shunday ekan Ravotxo'ja nomi bejizga bunaqa nomlanganiga amin bo'lamiz. Bu qishloqda obi-xayotning to'g'oni balki ulug' avliyoning muborak qadamjolari mangu qo'nim topgan maskani ham hisoblanadi. Biz islom qadriyatlarining eng oliy bo'g'ini xisoblangan ulug' aziz-avliyolarning xotirasiga xurmat va extirom ko'rsatish, uni abadiylashtirish kabi ezgu odatlarning beshigi bo'lgan yurtda istiqomat qilamiz. Shu bois ham Islom madaniyatining yurtimizga kirib kelishi bilan bu kabi ezgu amaliy ishlar samarasi yanada bo'y ko'rsatdi!

Xulosa. Zero yuqoridagi birgina Ravotxo'janing asl nomi So'g'dcha varaqsar deb nomlanishi va keyinchalik Islom olamida ulug' mutafakkir xisoblangan shayx nomiga qo'yilganligi fikrimiz isboti. Qolaversa ma'lum bir xudud axolsining yashash tarzi va ijtimoiy xolatidan kelib chiqqan xolda nom berilishi bu keyingi davrga xos an'ana xisoblanadi. Islom dinining kirib kelishi esa xolatni butunlay o'zgartirdi. So'g'd tilida nomlangan xududlar nomi boshqacha yani arabcha nomlanadigan bo'ldi. Islom olamining ulug' allomalari va shayxlari sharafiga nomlash tus oldi, bu esa yuqorida biz ko'rib o'tgan Xo'jayduq va Ravotxo'ja qishloqlarining tarixi bilan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bevosita bog'liq. Bundan tashkari ayrim toponimlarni nomlanishi va kelib chiqishi o'sha xudud axolisining rivoyat va afsonasiga xam borib taqaladi. Bunga yorokin misol G'oibota maxallasi. Birinchi va ikkinchi renessans davrida Urgutdan yetishib chiqqan ulug mutafakkirlar keyinchalik o'zi yashab o'tgan xudud axolisi tomonidan o'sha mo'tabar zotning xotirasi sharafiga qishloqlarni nomlashgan. Yoki aksincha o'sha qishloqdan yetishib chiqqan alloma o'zini familiasiga yashagan qishloqning nisbasi qo'shib aytilgan. Keyingi yillarda xar bir xudud va qishloqlarning tarixini o'rganish ishlari qizg'in tus oldi. Xususan filolog va tarixchilarning izlanishlari bu soxadagi erishgan yutuqlari quvonarli albatda. Shu bilan bir qatorda toponimlar tarixiga oid arab mualliflarining asarlarini o'rganish va Urgutdagi joy nomlarining tarixiga oid ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilik e'tiboriga xavola qilish dolzarb masala xisoblanadi. Qolaversa og'zaki tarix xam qishloq va maxallalar tarixini o'rganishda muxim ahamiyat kasb etadi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan qishloqlarning tarixi, tarixiy kitoblardagi ma'lumotlar va qishloq kekxa nuroniy xamda onaxonlarning o'zlaridan eshitgan ma'lumotlarni solishtirish va taqqoslash asosida yoritishga xarakat qildik. Zero bugungi kunda muxtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan yoshlarimizga tarixni o'rgatish, o'tmishda yetishib chiqqan (yashab o'tgan) Buyuk olim-u mutafakkirlarimizni ezgu g'oya va ma'naviyatini ongiga yetkazishdek xayrli ishning de'bochasi sifatida, avvlo o'zining tug'ilib o'sgan xududning tarixini bilishdan boshlasa o'z samarasini beradi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Абдурашид Абдурахмонов. "Ургут: Тарих ва Адабиёт У'збекистон ССР "Фан" нашриёти 1990 й. 13-14 бет.
2. Рустам Жабборов, Насрулло Хайдаров. "Ватан ичра ватан" Тошкент 2010. 7-8-9 бетлар.
- 3.У'лмас Махмадмуродов " Урут ва Ургутликлар". Тошкент "Ёзувчи" нашриёти 1999 й. 7-9 бет
- 4.Абдурашид Абдурахмонов, Холиухаммад Нур " Улуг Мададкор" "Зарафшон" нашриёти, Самарканд 2003 й. 11-бет.

